



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
e
LIBRARY.RU

XOJIMUHAMEDOVA Dilbar Rixsiboevna
 O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
 Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini
 oshirish instituti katta o'qituvchisi

ADVOKATNING KASBIY FAOLIYATIDA BA'ZI PSIXOLOGIK QIYINCHILIKLARNI KONSTRUKTIV HAL QILISH

For citation (иқтибос келтириш учун, для цитирования): XOJIMUHAMEDOVA D.R. Advokatning kasbiy faoliyatida ba'zi psixologik qiyinchiliklarni konstruktiv hal qilish // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2025) B. 147–153.



4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada advokatning kasbiy faoliyatida ba'zi psixologik qiyinchiliklarni konstruktiv hal qilishning ahamiyati va usullari tahlil qilingan. Advokatlarning kasbiy faoliyatidagi o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda advokat shaxsining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan psixologik qiyinchiliklar va mutaxassisning ish sifatiga va shaxsiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishiga olib kelishining sabalari va echim usullari tavsiya etilgan. Advokatlik sohasidagi yuqori mas'uliyat va emotsiyonal bosimlar ruhiy va jismoniy zo'riqishni shakllantirib, stressga sabab bo'ladi, shu sababli advokat psixologik kompetensiya ko'nikmasini rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada psixologik bilimlarni oshirish, turli hil samarali neyro texnika, relaksatsiya va nafas olish mashqlari, ish vaqt va vazifalarni samarali boshqarish, jismoniy faollikni oshirish, qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash hamda ish va shaxsiy hayot muvozanatini saqlash kabi umumiy tushunchada psixologik kompetensiya ko'nikmasini rivojlantirish, stressga chidamlilikni rivojlantirish usullari tavsiya etilgan. Ushbu kompleks yondashuv advokatlarning kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish va samaradorligini oshirish, ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Psixologik kompetensiya, stress, stressga chidamlilik, frustratsiya, samarali muloqot ko'nikmasi, frustratsion bag'rikenglik, emotsiyonal intellekt, konflikt, psixologik tiklanish.

ХОЖИМУХАМЕДОВА Дильбар Рихсибаевна

Старший преподаватель Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерство юстиции Республики Узбекистана

КОНСТРУКТИВНОЕ РЕШЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АДВОКАТА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются значение и методы конструктивного решения некоторых психологических трудностей в профессиональной деятельности адвоката. С учетом специфики профессиональной деятельности адвокатов предлагаются причины и методы их решения, которые приводят к возникновению профессионально значимых психологических трудностей личности адвоката и существенно влияют на качество работы и личной жизни специалиста. Высокая ответственность и эмоциональное давление в сфере адвокатской деятельности формируют психическое и физическое напряжение и вызывают стресс, поэтому адвокату важно развивать навыки психологической компетентности. В статье рекомендуются методы совершенствования психологических знаний, различные эффективные нейротехники, релаксационные и дыхательные упражнения, эффективное управление рабочим временем и задачами, повышение физической активности, укрепление системы поддержки и поддержание баланса между работой и личной жизнью, а также развитие стрессоустойчивости в общем смысле. Данный комплексный

подход служит успешному выполнению профессиональных задач и повышению эффективности работы адвокатов, укреплению их психического здоровья.

Ключевые слова: Психологическая компетентность, стресс, стрессоустойчивость, фрустрация, эффективные коммуникативные навыки, фрустрированная толерантность, эмоциональный интеллект, конфликт, психологическое восстановление.

DILBAR Khojimuhamedova

Senior Lecturer Training Institute for Lawyers

TITLE: CONSTRUCTIVE RESOLUTION OF CERTAIN PSYCHOLOGICAL CHALLENGES IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF LAWYERS

ANNOTATION

This article analyzes the importance and methods of constructively addressing certain psychological challenges in the professional activities of lawyers. Taking into account the specific features of legal practice, the article identifies psychological difficulties of professional significance faced by lawyers, explores the reasons these challenges may significantly affect both the quality of work and personal life, and provides recommendations for effective solutions. The high level of responsibility and emotional pressure inherent in the legal profession often leads to mental and physical strain, which in turn causes stress. Therefore, the development of psychological competence skills by lawyers is of critical importance.

The article recommends a number of approaches aimed at enhancing psychological competence and resilience to stress, including improving psychological knowledge, applying effective neuro-techniques, practicing relaxation and breathing exercises, managing time and workload efficiently, increasing physical activity, strengthening support systems, and maintaining a balance between work and personal life. This comprehensive approach serves not only to improve lawyers' professional effectiveness and the successful fulfillment of their duties, but also to promote their mental well-being.

Keywords: psychological competence, stress, stress resilience, frustration, effective communication skills, frustration tolerance, emotional intelligence, conflict, psychological recovery.

Advokatning kasbiy faoliyatining zamonaviy shartlari unga yuqori talablarni qo'yadi. Advokat ko'p narsalarni bilishi va bajara olishi kerak. U qonunlarni yaxshi bilishi va ularni tahlil qilishi va qo'llashi, huquqiy mobil bo'lishi, hujjatlar bilan ishlashi, iltimosnomalar, bayonotlar tuzishi, kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi, ommaviy nutq so'zlashi va boshqa ko'p narsalarga ega bo'lishi kerak. Ammo bu ham yetarli emas. Amaliyotchi advokat ishining muvaffaqiyati nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga, balki uning shaxsiy fazilatlariga, psixologik ko'nikmalarining rivojlanganligiga, samarali muloqot qilish qobiliyatiga, ishonchli, psixologik jihatdan qulay komfort shaxslararo munosabatlarni o'rnatish qobiliyatiga, o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatiga, nizolarni konstruktiv hal qilishga, nizo eskalatsiyasining oldini olishiga va samarali ishlarni tashkil etishga bog'liq. Advokatning kasbiy faoliyatida, psixologik jihatlar har doim kasbiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan.

Zamonaviy advokat o'z faoliyatini samarali amalga oshirish uchun ushbu kasb uchun zarur bo'lган bir qator psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Advokat, fuqarolar va tashkilotlarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi, o'z manfaatini ko'zlamaydigan shaxs sifatida, o'zi, ishonch vakillari, mijozlari va sud jarayonida psixolog mutaxassisining imkoniyatlari haqida psixologik bilimlarsiz, professional kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarsiz ishlay olmaydi.

Professional kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar - bu kasbiy faoliyatni amalga oshirish samaradorligiga ta'sir qiluvchi xususiyatlardir. Ular kasbiy faoliyatning sharti va uning yangi

shakllanishi hisoblanadi, chunki ular mehnat jarayonida rivojlanadi va takomillashadi. Kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarni shaxs tuzilishidan ajratib bo'lmaydi. Advokatlik kasbi bu turli xil odamlar bilan muloqot, aloqani o'z ichiga oladi, uning vakillarining mashhurligi, obro'si, ishonchliligi, va bu xususiyatlarning barchasi asosan advokat imidjining jozibadorligi bilan belgilanadi.Biroq, imidj inson kasbining eng yuqori darajasiga ko'tarilishini ham osonlashtirishi mumkin bo'lganidek, shuningdek qiyinlik tug'dirishi ham mumkin. Huquq – uning barcha sohalarida, ko'rinishlarida va o'zaro aloqalarida. Vaziyatga har tomonlama kompleksli yondashish, malakali huquqiy baholash va muammoni hal etishning huquqiy yo'llarini topish professionalning ajralmas sifatidir.

Advokatlar duch keladigan psixologik muammolar, albatta, zamonaviy psixologiya sohasida jiddiy bilimlarni talab qiladi. Advokatga murojaat qilishni talab qiladigan huquqiy muammolari bo'lgan odamda, qoida tariqasida, psixologik muammolar ham mavjud. Ularning keskinligini hisobga olmasdan va kamaytirmasdan, bunday odam bilan o'zaro munosabatlarni to'g'ri qurish, hamkorlik natijalarini bashorat qilish mumkin emas. Advokat turli idoralarda ishonchli vakilning manfaatlarini himoya qilar ekan, uning ish natijasi bog'liq bo'lgan turli odamlar bilan muloqotga kirishadi. Ularga ta'sirining darajasi ko'p jihatdan uning psixologik kompetentligi bilan belgilanadi. Nihoyat, advokatning psixologik savodxonligiga o'z mehnati bilan qoniqish hissi, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivlari, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini namoyon qilishga intilishiga bog'liq.

Advokatning kasbiy faoliyati huquqiy faoliyat asosida yuritiladi. Huquqiy faoliyat - huquqiy normalar bilan bog'liq faoliyat. Advokatning kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular faoliyatining asosiy ob'ekti shaxs va u bilan qat'iy huquqiy tartibga solish sharoitida o'zaro munosabatdir. Advokat o'z faoliyatida odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish, ularning xatti-harakatlarini qonun nuqtai nazaridan baholash, fuqarolar hayotining eng og'ir vaziyatlarda faoliyatining eng xilma-xil ko'rinishlarini kuzatish zarurati bilan duch keladi.Binobarin, kasb nafaqat oliv ijtimoiy ahamiyatga ega, balki mas'uliyatni ham o'z zimmasiga oladi. Ushbu kasbiy faoliyatni boshqa kasblardan ajratib turadigan bir qator xususiyatlar ajralib turadi:

- huquqiy makonda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarning favqulorra xilma-xilligi;
- faoliyatning qonunchilik normalari bilan to'liq belgilanishi;
- faoliyatning kommunikativ tomonini huquqiy tartibga solish;
- salbiy his-tuyg'ularni bostirish zarurati bilan bog'liq ishning yuqori hissiy tarangligi[1].

Advokatga o'z kasbiy faoliyatining turi bo'yicha turli toifadagi fuqarolar bilan muloqot qilishga to'g'ri keladi: ayiblanuvchilar (gumon qilinuvchilar, mahkumlar),guvohlar, ularning qarindoshlari va tanishlari, da'vogarlar bilan va javobgarlar, biznes vakillari va h.k.Ushbu toifalarning individual-psixologik xususiyatlarini bilish, kasbiy vazifalarning yechim sifatini oshirish uchun qo'shimcha resurs beradi.

Psixologik kompetentlik advokatning psixologik madaniyati va uning kasbiy mahoratining elementidir.

Psixologik kompetentlik - bu nafaqat psixologiya sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shaxsning professional ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlari, kasbiy vazifalarni hal etishga yordam beradigan qobiliyatlar, balki psixo-mantiqiy axborotni idrok etish va undan foydalanish, psixologik bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyor bo'lism. Ishonch bildiruvchining xulq-atvoridagi tashqi ko'rinishlar ortidan advokat uning ruhiy holatini, xarakterini, xulq-atvor sabablarini ko'ra olishi, xulq-atvorini bashorat qila olishi, muloqot jarayonida o'zaro hamkorlikning eng samarali usullarini tanlashi va mohirona qo'llashidir[2].

Advokatlarning kasbiy faoliyatidagi o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda advokat shaxsining kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi psixologik qiyinchiliklar har xil bo‘lishi va mutaxassisning ish sifatiga va shaxsiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ularning asosiyлари quyidagilar:

1. Stress va charchoq, emotсional bosim, zo‘riqish: Advokat duch keladigan psixologik qiyinchiliklarga odamlarning taqdirlari uchun javobgarlik bilan bog‘liq stress, har xil turdagи odamlar, shu jumladan psixologik jihatdan beqaror mijozlar va jinoyatchilar bilan doimiy aloqada bo‘lish va o‘zaro aloqada bo‘lish zarurati va kasbiy charchash xavfi kiradi. Advokatning ishi ko‘pincha yuklama, muddat va hissiy jihatdan og‘ir ishlar bilan bog‘liq. Noaniqlik, yuqori ma’suliyat, qiyin vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish zarurati kuchli stress, distress va xavotirga olib kelishi mumkin. Bu kasbiy charchashga, motivasiya va mahsuldorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

2. Ijtimoiy yetuklikni tavsiflovchi sifatlarning rivojlantirilmaganligi: (salbiy sifatlarning ustunligi - past ahloqiy qiyofa, aldashga moyillik, ma’suliyatsizlik);

Ular huquqiy ongning yuqori darajasini, ijtimoiy mas’uliyatni, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishni, umuman olamga ijobiy qarashni, kasbiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan motivlarining ustunligini ta’minlaydi. Bularga halollik, to‘g‘rilik, mas’uliyat, ijtimoiy bag‘rikenglik, optimizm, rivojlangan iroda, adekvat o‘zini baholash va boshqalar kiradi.

3. Hissiy yuklanish: Advokatlar ko‘pincha mijozlarning fojalari va murakkab hayotiy vaziyatlariga duch kelishadi. Bu esa hamdardlik, ayrim hollarda esa hissiy shikastlanishga olib kelishi mumkin.

4. Manfaatlar to‘qnashuvi: Advokatlar o‘zlarining kasbiy majburiyatlari shaxsiy e’tiqodlariga zid bo‘lganda ma’naviy dilemmalarga duch kelishlari mumkin. Bu esa ichki nizo va stressni keltirib chiqarishi mumkin.

5. Qonunchilik va etika qoidalariga rioya qilish: Qonunchilikdagi o‘zgarishlar va kasbiy etika talablariga muvofiq ishlash ham qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

6. Natija uchun javobgarlik: Advokatlar o‘z mijozlari ishlarining natijasi uchun javobgar bo‘ladilar, bu esa muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan bosim va qo‘rquvni keltirib chiqarishi mumkin.

7. Mijozlar bilan ishslash: Ayniqsa, stressli vaziyatlarda mijozlar bilan hamkorlik qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Tushunmovchilik, nizolar yoki mijozlarning talablari qo‘srimcha keskinlikka olib kelishi mumkin. Mijozlar ko‘pincha turli hil emotсional holatda, havotirda, g‘azablangan yoki tushkun holatda bo‘ladi. Ular bilan muloqot qilishda empatiya, sabr va psixologik tayyorgarlik, hissiy barqarorlik talab etiladi.

8.Chegaralarni buzish: Advokatlar shaxsiy va kasbiy chegaralarni belgilashda qiyinalishi mumkin, bu esa ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni buzishga olib kelishi mumkin.

9. Noaniqlik va beqarorlik: Yuridik amaliyot oldindan aytib bo‘lmaydigan va advokatlar ish natijalari ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lgan holatlarga duch kelishi mumkin, bu esa qo‘srimcha tashvish tug‘diradi.

10. Muloqotdagi qiyinchiliklar (shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ichki baho va ishonch bilan bog‘liq muammolar): Advokat turli xil odamlar, shu jumladan hissiy tanglik holatida bo‘lgan mijozlar, guvohlar, sudyalar va raqiblar bilan umumiy til topa olishi kerak. Samarali muloqot, aloqa qila olmaslik ziddiyatlar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. O‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘ziga ishonch bilan bog‘liq muammolar: Ishdagi muvaffaqiyatsizliklar, hamkaslar yoki mijozlarning tanqidlari advokatning o‘zini o‘zi qadrlashiga putur yetkazishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi va kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

11. Frustrasion bag‘rikenglikning rivojlanmaganligi: Sud amaliyoti ko‘rsatishicha, ko‘p hollarda himoya ostidagi shaxslar advokatdan ba’zi psixologik omillar sababli jinoyat ishi holatiga oid muhim ma’lumotlarni sir tutishadi, sud jarayonida bunday ma’lumotlar fosh etilganida esa,

bu holat advokat uchun kutilmagan va keskin zarba bo'lgani sababli, advokatning frustrason chidamliligi ko'nikmasini pasaytiradi.

12. Ma'suliyat va qaror qabul qilish: Advokatning qarorlari mijozning hayotiga va erkinligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa kuchli psixologik bosimni keltirib chiqaradi.

Advokatning frustrasion bag'rikengligi ko'nikmasi bu umidsizlikka chidamlilik ko'ngilsizliklarga (frustratlarga) qaramay, sabr-toqat, chidamlilik, og'ir ichki kechinmalar va keskin reaksiyalarning yo'qligi. Advokat murakkab sud jarayonlarida qatnashadi va ba'zi holatlarda qutuvlari, umidlari oqlanmay qoladi, bu holat ham advokat uchun kuchli frustrasiya holati bo'lishi mumkin. Tolerantlik insonning umidsizlik holatini adekvat darajada baholash va undan chiqish yo'lini oldindan bilish qobiliyatiga asoslangan. Umidsizlik bag'rikengligi shaxsni shakllanishi va uning hayotdagi qiyinchiliklarga hissiy munosabatining barqaror shakllarini rivojlanishi jarayonida rivojlanadi. Umidsizlikka chidamlilik qiyinchiliklarni yengib o'tishni va stressga chidamlilik ko'nikmasini rivojlantirish uchun sog'lom strategiyalarni saqlashni o'z ichiga olganligi sababli, bu odamning stressga chidamliligi bilan chambarchas bog'liq.

13. Professional deformatsiya: Doimiy qarama-qarshilik va mijozning manfaatlarini himoya qilish zarurati bilan advokat har doim ham axloqiy me'yorlar va prinsiplarga mos kelmaydigan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, masalan, odamlarga ishonchszilik, muayyan yoki barcha axloqiy qadriyatlarni ongli va namoyishkorona e'tiborsiz qoldiradigan xatti-harakatlarni ochiq namoyon qilish. Shaxslararo munosabatlarda ishonchning pasayishi, gumondorlik. Eng keng tarqalgan kasbiy destruksiya buzilish, kasbiy deformasiyadir. Ushbu buzilish, mehnat jarayonida salbiy ruhiy holatlar ustunlik qilsa paydo bo'ladi (samarasiz psixologik zo'riqish, kuchli, surunkali charchoq va boshqalar), faoliyatning o'zi noqulay sharoitlarda, ko'plab nizolar yuzaga kelganda, sub'ektning imkoniyatlari talablarga mos kelmasa va hokazo. Kasbiy deformasiya, shuningdek, ish qobiliyatining pasayishiga, bajarilayotgan faoliyatga qiziqishning yo'qolishiga, shaxsiy va kasbiy ma'nolarni rag'batlantiradigan kasbiy qadriyatlarning yo'qolishiga olib keladi, natijada bunday ishlarga barqaror befarq yoki hatto salbiy munosabat shakllanadi. Kasbiy deformasiya, agar qoplanmasa, kasbiy kasallikkлага olib kelishi mumkin.

14. Kognitiv buzilish: Bular mutaxassisning fikrlashidagi noto'g'ri tushunchalar va noto'g'ri qarorlarga olib kelishi mumkin bo'lgan tizimli xatolardir. Ular faktlarni ob'ektiv tahlil qilish o'rniغا, ma'lumotni soddalashtirish va his-tuyg'ular va oldindan o'ylangan munosabat(ustanovka) asosida qaror qabul qilish tendensiyasidan kelib chiqishi mumkin. Kognitiv buzilishlar mutaxassisning idrokini jiddiy ravishda buzishi va moliyaviy investitsiyalardan tortib shaxslararo munosabatlarga qadar hayotning turli sohalarida mutaxassisning qarorlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ushbu buzilishlarni bartaraf etish uchun ularning mavjudligini anglash va ma'lumotni ob'ektiv tahlil qilishga, shuningdek turli xil manbalar va istiqbollarni izlashga faol intilish muhimdir. Faqat shu tarzda mutaxassis kundalik hayotida ko'proq asoslangan va ma'lumotli qarorlar qabul qila oladi.

15. Professional pozitsiyasini unutish. Advokat vaziyatni shunday qabul qila boshlaydiki, bu uning ishonchli vakilida emas, balki shaxsan qonun bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Bunday xatoning oldini olish uchun jarayonning har bir ishtirokchisi o'z roli doirasida harakat qilishini yodda tutish kerak.

16. Umumlashtirish tendensiyasi. Advokat ishning maqsadlari haqidagi savolga mavhum tushunchalar bilan javob beradi, masalan, yovuzlikni jazolab, odamni qutqarishni xohlaydi. Bunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har bir ish uchrashuvidan oldin ma'lum bir maqsadni talaffuz qilishi kerak bo'ladi.

17. O'ziga ishonchszilik. Ko'p holatlarda advokat tashqi muhit ta'sirida o'z bilimlari, fikrlari, tajribalari, ko'nikmalariga o'zi shubha qiladi. Ushbu xatoni bartaraf etish uchun advokat doimo

o‘zini o‘ziga bo‘lgan ichki baho va ishonchini oshirib turishi, psixologik bosimga yuzlantirishi va raqiblar manipulyatsiya qilishi mumkinligini yodda tutishi kerak.

18. Himoya ostidagi shaxsga (mijozga) haddan tashqari ishonchi. Himoyachi me'yordan ortiq hamdard bo‘lishni boshlaydi, bu esa mijozga haddan tashqari ishonish xavfini tug'diradi. Bunday xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun har qanday ishonchli vakilning so‘zları tahlil va sinchkovlik bilan tekshirishni talab qilishini tushunishi kerak.

19. Haddan tashqari hissiy reaksiya. Ishdagi o‘z pozitsiyasi va ayblovchi bilan raqobat haqida tashvishlanish himoyachiga ishning holatini yetarli darajada baholashga va izchil himoya taktikasini ishlab chiqishga to‘sinqinlik qiladi.

20. Advokatning kasbiy faoliyatida konfliktologik kompetensiya ko‘nikmalarining rivojlantirish;

Konfliktologik kompetensiya-bu konflikt, nizo, ziddiyat, mojaro bilan ishlashning mumkin bo‘lgan konstruktiv usullari, ularni amaliy qo‘llash bo‘yicha ma’lum ko‘nikmalar to‘plami va zarur shaxsiy va kasbiy fazilatlar to‘g‘risida nazariy bilimlarning mavjudligini nazarda tutadigan murakkab tushuncha. Advokatning kasbiy faoliyatida konfliktologik kompetensiya umumiyligi, tushunchasida har qanday konfliktli, nizoli, ziddiyatli, mojaroli, stressli vaziyatlarda, advokatning turli xil hayotiy muammolarni yengishga psixologik tayyorligi.

21. Advokatning kasbiy faoliyatida professionallashtirish inqirozi; Kasbiy mehnatdagi eski narsa endi qoniqtirmasa, yangi narsa topilmasa yoki xodimning ijodiy topilmalari kasbiy muhitda qarshilikka duch kelsa, yuzaga kelishi mumkin (A.K. Markova). Kasbiy inqirozlarning asosiy belgilari; yangilik tuyg‘usini yo‘qotish, hayotdan orqada qolish, professionallik darajasining pasayishi, ichki chalkashlik, o‘zini qayta baholash zarurligini anglash, o‘zini qadrlashning pasayishi, charchoq, o‘z imkoniyatlarini tugab qolganligi hissi paydo bo‘lishi va hokazo. Ko‘rinib turibdiki, inqirozli hodisalar - professionallashtirishning ajralmas atributi bo‘lib, ularni konstruktiv hal qilishni o‘rganish zarur [3].

Advokatlik kasbida professional axloqqa rioya qilgan holda konfliktda advokat, konfliktologik kompetensiya ko‘nikmalarini rivojlantirgan holda o‘zini samarali tuta bilishi, konflikt eskalatsiyasiga yo‘l qo‘ymasligi, (Nizoning kuchayishi, konflikt dinamikasining muhim bosqichi uning kuchayishi, ya’ni, rivojlanishi), umumiyligi tushunchada advokat kasbiy faoliyatini davomida har qanday konfliktli, nizoli vaziyatga psixologik tayyor bo‘lishi muhimdir.

Qiyin vaziyatlarda o‘zini tutish bo‘yicha ba’zi tavsiyalar:

Eng avvalo tinchlanishi. Shaxsiyatga o‘tmaslik va manipulyatsiya, provokasiya va psixologik bosimlarga berilmaslik muhimdir. Hissiyotlardan mustaqil bo‘lish, hissiyotlarga berilmaslik. O‘z o‘zini refleksiya qilish, empatiya, stressga chidamlilik, emotsiyonal, adaptiv intellekt va coping strategiya ko‘nikmalarini rivojlantirish. Advokatning asosiy vazifasi-o‘z pozitsiyasini himoya ostidagi shaxs manfaatlarida aniq va ishonchli tarzda yetkazish. Muloqotda hurmatga rioya qilish advokatlik faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Tinch ohangni(paraverbalika) saqlash va sud jarayonning boshqa ishtiroychilarining qadr-qimmatini pasaytirmaslik, inkor etmaslik muhimdir. Muloqotda ochiq bo‘lish. Qarama-qarshi tomonning fikrini tinglash va murosaga erishishga harakat qilish kerak. Professionallikka, axloqiy me’yorlarga rioya qilish va qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan ish usullaridan foydalanmaslik lozim.

Advokatning kasbiy faoliyatida kasbiy xavflar:

- Advokat tahdidlarga, raqiblarning bosimiga yoki hatto jinoiy elementlarga duch kelishi mumkin.
- Qobiliyatsizlik, vijdonsizlik yoki hatto jinoyatga sheriklikda ayblanishi mumkin.
- Professional axloqni saqlab qolish va manfaatlar to‘qnashuviga kirishib ketmaslik kerak, bu yuqori darajadagi o‘zini o‘zi boshqarish va anglashni talab qiladi.

Advokatning kasbiy faoliyatida shaxsiy qiyinchiliklar:

- Shaxsiy hayot, oila va dam olish uchun vaqtning yetishmasligi shaxsiy munosabatlarda keskinlikka olib kelishi mumkin.

- Doimiy diqqat e'tibor va oshkoraliqka bo'lgan ehtiyoj noqulaylik va stressni keltirib chiqarishi mumkin.

- Kasbiy faoliyat bilan bog'liq salbiy his-tuyg'ularga duch kelish xavfi advokatning umumiyligi psixologik holatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Advokat ishonchli vakil, mijozlar bilan sog'lom munosabatlarni o'rnatishi: Mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish, taxminlar va cheklovlarani aniq belgilash va ularning hissiy holatini ko'ra bilish, tushunish nizolarning oldini olishga va ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.Ushbu psixologik muammolarni hal qilish usullari: Psixologik kompetensiya ko'nikmalarini muntazam ravishda o'rganish va rivojlantirish: Stressga chidamlilik, emotsiyalik va adaptiv intellekt, empatiya, frustrasion bag'rikenglik, samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, vositachilik bo'yicha treninglarda faol qatnashish kasbiy yordam so'rashi, qo'llab-quvvatlash guruhlarida ishtirok etishi va muntazam ravishda psixologik savodxonliklarini oshirib borishlari shu bilan birga vaqt bilan psixolog yordamidan foydalanishlari kasbiy malakani oshiradi va psixologik qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Xulosa o'rnila shuni esda tutish kerakki, advokatning psixologik salomatligi uning ko'rsatiladigan yuridik yordami sifatiga va uning kasbiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Комлев В.А. Психология профессиональной деятельности юриста: учебное пособие для обучающихся по программе бакалавриата по направлению подготовки 40.03.01 Юриспруденция. – Киров : ООО «Издательство «Радуга-ПРЕСС», 2025. – 91 с. URL: http://raduga-press.com/gallery/psychology_of_professional_activity_lawyer.pdf
2. Скабелина Л. А. Психологические аспекты деятельности адвоката. – М.: МГЮА им. О. Е. Кутафина, 2020. – 210 с.
3. Штырц Н.А. Эмоциональное здоровье человека в условиях неопределенности. Техники самопомощи : методические рекомендации / Н. А. Штырц, Е. П. Шаньгина.– Екатеринбург, 2017. – 56 с.

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON, 6-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 4, ВЫПУСК 6

LAWYER HERALD
VOLUME 6, ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416